

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU**  
**ILMIY**  
**XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2023  
MAXSUS SON

**НАУЧНЫЙ**  
**ВЕСТНИК.**  
**ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>Э.Б.Ягьяева</b>	
Дифференцированный метода обучения при изучении иностранного языка и организации самостоятельной работы студентов.....	114
<b>М.К.Мавлюда</b>	
O'qituvchi kompetensiyasining o'ziga xos xususiyatlari.....	117
<b>G.A.Asomiddinova</b>	
Qahramon xarakterini yaratishda badiiy nutq imkoniyatlari va muallif mahorati.....	120
<b>N.K.Abbasova, Z.Q.Xakimova</b>	
Speech act as an important function of communication.....	125
<b>Sh.R.Muydinov</b>	
Linguoculturological description of zoonym composite partial similarities.....	128
<b>M.Madaminova</b>	
Exploring the persuasive power of publicistic style: utilizing proverbs and sayings in english lesson.....	130
<b>Sh.M.Yusufjonova</b>	
Frazeologizmlar taqiqi.....	134
<b>Ш.И.Аскарова</b>	
К проблеме языковой интерференции и билингвизма при изучении третичного языка.....	137
<b>Ш.И.Аскарова</b>	
К вопросу трансфера и интерференции при изучении немецкого после английского языка.....	141
<b>Sh.Sh.Dadabayeva</b>	
Tarjimada so'zning kontekstdagi ma'nosini aniqlash usullari.....	148
<b>Sh.Sh.Dadabayeva</b>	
Tarjima jarayonida vaziyatning o'rganilishi.....	152
<b>Sh.Y.Usmonova</b>	
Cognitive analysis of landscape terms in uzbek and english languages.....	159
<b>Sh.Y.Usmonova</b>	
O'zbek va ingliz tillarining terminologik tizimida landshaft terminlarining o'rni.....	162
<b>Z.Sh.Pazilova</b>	
Nemis xalqida dafn marosimining o'tkazilishi.....	167
<b>Z.Sh.Pazilova</b>	
O'zbek va nemis xalqlarida to'y bilan bog'liq shaxs nomlari.....	170
<b>R.U.Axrorova</b>	
Lingvomadaniyatshunoslik: lingvokulturema va logoepistema.....	173
<b>O.O.Bobokalonov, R.U.Akhrorova</b>	
Shifonemas in phraseological units related to the period of youth.....	178
<b>R.U.Axrorova</b>	
Fransuz ertaklarida yoshga oid reprezentlarning leksik-semantik va milliy-madaniy xususiyatlari.....	182
<b>Z.M.Abdullaev</b>	
Nemis tili ismlari motivlari va ism tanlashga ta'sir etuvchi omillar.....	185
<b>Z.M.Abdullaev</b>	
Nemis tilida atoqli otlar va ularning tasnif etilishi.....	188
<b>I.R.O'rinboyev</b>	
Ba'zi na'matak ( <i>Rosa</i> ) turlarining Farg'ona shahrida tarqalishi va dorivorlik xususiyatlari.....	190
<b>I.D.Yakubov</b>	
Separator-tozalagich qurilmasining parametrlari.....	193
<b>M.Nazarov, A.T.Maxsudaxon</b>	
Javdarni jadal texnologiyada parvarishlash.....	201
<b>Ё.Г.Абдуганиев</b>	
Получение и свойства производных перфторакриловой и перфторметакриловой кислоты.....	205
<b>D.M.Ahmedova</b>	
Ekologik munosabatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari.....	215

**BA'ZI NA'MATAK (ROSA) TURLARINING FARG'ONA SHAHRIDA TARQALISHI VA DORIVORLIK XUSUSIYATLARI**

**РАСПРОСТРАНЕНИЕ И ЛЕЧЕБНЫЕ СВОЙСТВА НЕКОТОРЫХ ВИДОВ ШИПОВНИКА (ROSA) В ГОРОДЕ ФЕРГАНА**

**DISTRIBUTION AND MEDICINAL PROPERTIES OF SOME TYPES OF ROSE HIPS (ROSA) IN THE CITY OF FERGANA**

**O'rinboyev Ilxomjon Ravshanovich<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya**

*Ma'lumki, na'matak (rosa) — Ra'nodoshlar oilasiga mansub rosaceae turkumining ko'plab turlari katta amaliy ahamiyatga ega. Ba'zi mamlakatlarda ularning manzarali o'simliklar sifatida keng qo'llanilib ekilsa, ba'zi madaniy turlarining gullaridan qimmatbaho na'matak moyini olish uchun ekiladi. Na'matakning ko'plab yovvoyi turlarining mevalarida askorbin kislotasining yuqori foizini o'z ichiga olgani va C vitamini manbai bo'lib xizmat qilganini alohida ta'kidlab o'tish joizdir.*

**Аннотация**

*Известно, шиповник (лат. Rosa) - род растений семейства Розовые (Rosaceae) порядка Розоцветные (Rosales), имеют большое практическое значение. В некоторых странах их широко используют как декоративные растения, а некоторые культурные виды возделывают для получения ценного эфирного масла. Следует отметить, что плоды многих дикорастущих видов шиповника содержат высокий процент аскорбиновой кислоты и служат источником витамина С.*

**Abstract**

*It is known that Rosehip (lat. Rosa) is a genus of plants of the Rosaceae family of the Rosales order, and is of great practical importance. In some countries they are widely used as ornamental plants, and some cultivated species are cultivated to obtain valuable essential oil. It should be noted that the fruits of many wild Namatak species contain a high percentage of ascorbic acid and serve as a source of vitamin C.*

**Kalit so'zlar:** Na'matak, Itburun na'matak- (*Rosa canina*), Fedchenko na'matagi- (*Rosa Fedtschenkoana Rql.*), Begger na'matagi- (*Rosa Beggeriana Schrenk.*).

**Ключевые слова:** Шиповник, Шиповник собачий- (*Rosa canina*), Шиповник Федченко- (*Rosa fedtschenkoana Rql.*), Шиповник Беггера- (*Rosa beggeriana*).

**Key words:** Rosehip, *Rosa canina*, *Rosa Fedtschenkoana*, *Rosa Beggeriana Schrenk.*

**KIRISH**

Na'matak butasimon o'simlik bo'lib, ba'zi turlarining bo'yi 6 m gacha borishi mumkin. Poyasi egiluvchan, tikanli, yaltiroq, qo'ng'ir-qizil yosh novdalari bir oz yashil yoki qo'ng'ir-yashil ranglidir. Barglari toq; patli murakkab, poyada bandi bilan ketma-ket o'rnashgan. Murakkab barglari tuxumsimon va arrasimon qirrali. Qo'shimcha barglari bandi bilan birlashib ketgan ham bo'lishi mumkin. O'simlik gullari yirik yakka yoki 2-3 tadan shoxchalarga o'rnashgan. Gultojo oq, qizil, pushti, to'q qizil, sariq, bo'lishi mumkin. Mevasi - gul o'rnidan tarkib topuvchi shirador soxta meva hisoblanadi.

**Mavzuning o'rganilganlik darajasi va tadqiqot usullari.** Farg'ona shahrida na'matak turlari asosan may oylaridan boshlab butun yoz davomida gullaydi, mevasi esa iyul oylaridan sentyabr oylarida pishib yetiladi. Na'matak mevalari turlariga qarab og'irligi, rangi va katta-kichikligi novda po'stlog'ining ko'rinishi, tikondorligi bilan farqlanadi. Taqqiqotlar asosan 2020-2023 yillar mobaynida o'tkazildi.

Na'matak mevalari tarkibida juda ko'p miqdorda vitamin C (4—8%, ba'zan 18% gacha boradi), P,K,B gruppasi, karotinlar bilan bir qatorda flavonoidlar, qand, organik kislotalar (olma kislotasi 1,8—2% gacha, limon kislotasi 2% atrofida), pektin va oshlovchi moddalar, likopin va riboksan- tin, shuningdek kaliy, temir, marganets, fosfor, kaltsiy, magniy tuzlari bor. Meva urug'larida vitamin E mavjud.

Na'matak mevalari xalq tabobatida qadim zamonlardan beri ishlatilib kelinadi. Uning mevalaridan tayyorlangan damlamada o'pka sili, jigar, o't qopchasining yallig'lanishi, ichak, buyrak, qovuq; kasalliklarini davolashda foydalaniladi. Shuningdek, na'matakning mevasi asosida tayyorlangan qaynatma qon to'xtatuvchi, isitma tushiruvchi omil sifatida iste'mol qilinadi.

Na'matakning faqatgina gul va mevalarigina shifobaxsh bo'lib qolmasdan, balki uning barglari asosida tayyorlangan qaynatma me'da og'riqlariga nafli hisoblanadi. Xalq tabobatida hatto na'matak ildizlaridan tayyorlangan qaynatma qovuq, hamda buyrakka tosh kelib, og'riq, berganda ichilsa kishiga anchagina yengillik berishi tan olingan. Bundan tashqari na'matak mevalari asosida tayyorlanadigan damlama tinka qurishi, kamqonlikda, shuningdek darmonsizlikda ijobiy natija berishini inobatga olishimiz lozim.

Xalq tabobatida na'matakdan tayyorlangan damlamadan bolalarda kuzatiladigan mayda toshmalarni, yiringli-septik asoratlarga moyilligi bor o'tkir infeksiyon kasallik-qizilcha (skarlatina)ni, terlama (tif)ni va boshqa kasalliklarni davolashda foydalaniladi. Na'matak gullaridan primochka tayyorlab ko'zga bog'lansa, ko'z shamollashi bilan bog'liq bo'lgan kasalliklarga davo bo'ladi.

Ilmiy meditsinada ishlatish uchun mevadan damlama, ekstrakt va sharbat (ho'l mevasidan) hamda tabletkalar, xolosas kabi dorivor preparatlar tayyorlanadi. Mazkur preparatlar avitaminoz xastaligini, aterosklerozni davolashda, o't haydash maqsadida, tavsiya etiladi.

V.Kulikov keltirgan ma'lumotlarga qaraganda, o'simlik mevalaridan tayyorlangan preparatlar antiseptik, umumdaron bag'ishlovchi, (tetiklashtiruvchi) aterosklerozga davo bo'luvchi manba, sifatida ishlatiladi. Na'matak mevalarida P-vitaminlar yig'indisi bo'lganligi tufayli, u mayda qon tomirchalari devorlarining elastikligini oshirib, uni mustahamlaydi. V.V.Lebedevning keltirgan ma'lumotlariga qaraganda na'matak ildizlari asosida tayyorlangan qaynatma ovqatni hazm qiluvchi organlarning faoliyatini uyg'unlashtirib, uning fermentativ aktivligini me'yorga keltiradi. A.D.Turova na'matak preparatlari, inson organizmida xavfli bo'lgan yurak toj tomirlari aterosklerozida xolesterin miqdorini kamaytirishi haqida ma'lumotlar keltiradi. Bundan tashqari na'matak o't qopchasi kasalligi-xolestsistida hamda o't ajralishini sustlanishi bilan bog'liq bo'lgan kasalliklarda ijobiy natija beradi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, prof. A.D.Turovaning ma'lumotlariga qaraganda, na'matak preparatlari, uzoq muddat davomida suiiste'mol qilingan taqdirda me'da osti bezining insulin ishlab chiqarishiga salbiy ta'sir etishi va langergans orolchalarining normal faoliyatini buzishi mumkin.

Na'matak mevalaridan hozirda yana bir preparat karotolin chiqarilmoqda. Bu osimlik mevalari yumshoq, qismining moyli ekstrakti bo'lib, u asosan turli ko'rinishdagi teri kasalliklarini (trofik yaralar, dermatitlar, kichima, ekzema, psoriasis va boshqa) davolash uchun tavsiya etiladi.

Na'matak mevalarining urug'idan olinadigan to'yinmagan yog' kislotalari, karotinoidlar, takoferollar bilan xam turli kasalliklarni davolash mumkin.

Uy sharoitida na'matak mevalaridan qaynatma tayyorlash uchun og'zi yopiladigan idishga 2 stakan suv quyiladi va bir osh qoshiq maydalangan (yong'oqchalaridan ajratilgan) mevadan solinib, 10 daqiqa davomida qaynatiladi, so'ngra bir sutka davomida quyib qo'yiladi. Qaynatma doka vositasida suzilgach, unga shakar qo'shib shira beriladi. Qaynatmadan kuniga 3 maxal ovqatdan oldin yarim stakandan ichiladi.

Na'matak bilan qoraqat dan ham shifobaxsh damlama tayyorlash mumkin. Buning uchun mazkur ikki xil mevaning aralashmasidan 20 g olib, ustiga ikki stakan miqdorda qaynoq suv solinadida, 1 soat davomida biror narsa bilan o'rab damlab qo'yiladi. So'ngra sharbati suzib olinib, unga shakar qo'shiladi. Damlamadan kuniga 3-4 maxal yarim stakandan iste'mol etiladi.

Na'matakning mevalari bilan qandolatchilik sanoatida mahsulotlar vitaminlashtiriladi. O'simlikdan kosmetika mahsulotlari ham tayyorlanadi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbekistonda hususan Farg'ona viloyati Farg'ona shahrida ham na'matakning itburun- (shipovnik sobachiy) (*Rosa canina L.*), Fedchenko na'matagi (*Rosa Fedtschenkoana Rql.*). Begger na'matagi (*Rosa Beggeriana Schrenk.*) kabi turlari o'sishi aniqlandi.

Itburun na'matagining bo'yi 3 m atrofida bo'lib, u boshqa na'matak turlaridan gulkosachasining patsimon qirqilganligi, gullab bo'lganidan so'ng kosacha barglarining pastga qarab yo'nalishi hamda meva pishishi oldidan ularning tushib ketishi, yetilib pishgan mevasining yuqori qismida teshikchalar bo'lmasligi bilan ajralib turishi bilan farq qilishi ham o'rganildi.

Fedchenko na'matagining bo'yi 3—6 m bo'lib tik o'suvchi, bir qancha poyalardan iborat, shoxlari tarvaqaylagan o'simlik. Mevasi yirik bo'lib, uzunligi 5 sm ga yetadi, shakli tuxumsimon yoki cho'ziq; tuxumsimon, bezli dag'al tuklar bilan qoplanganligi ham o'rganildi.

Begger na'matagi mevasining dumaloq hamda juda maydalagi bilan farqlanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan na'matak turlaridan tashqari, Farg'ona shahrida jaydari na'matak—Roza korichnaya (*Rosa cinnamomea L.*) ham uchraydi. Uning bo'yi 20 sm dan 2 m gacha bo'lishi

mumkin. O'simlikning ingichka xivchinsimon novdalari qizil-g'ishtsimon, yaltiroq rangda bo'ladi. Mevalari sharsimon yoki tuxumsimon bo'ladi.

### XULOSA

Farg'ona shahrining o'simliklari xilma-xil bo'lishi bilan birga o'ziga xohligi bilan boshqa shaharlardan ajralib turadi. Ra'nodoshlar oila vakillarining o'rni esa Farg'ona shahrida beqiyos hisoblanadi. Hozirgi kunda bu oila vakillari ustida ish olib boryapmiz. Kelgusi ilmiy maqolalarimizda o'rganilgan boshqa turlari haqida yana to'xtalib, Farg'ona shahri hududida bu oila vakillaring sonini aniqlashtirib o'tamiz.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.O'rinboyev, I. . (2022). THE WORLD OF PLANTS IN THE URBAN FLORA OF FERGANA CITY. Евразийский журнал медицинских и естественных наук, 2(11), 169–172. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJMNS/article/view/4621>

2.Коровин Е. П. Книга II // [Растительность Средней Азии и Южного Казахстана](#) / Отв. ред. ак. АН УзССР [К. З. Закиров](#). — Ташкент: Издательство АН УзССР, 1962. — С. 130. — 547 с.

3.Фёдоров А. А., Артюшенко З. Т. Плод // [Атлас по описательной морфологии высших растений](#). — Л.: Наука, 1986. — 392 с.

4.Махлаюк В. П. Лекарственные растения в народной медицине. — Саратов, 1967. — 559 с.